

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Ashurov	
Yosh voleybolchilarning koordinatsion qobiliyatlarini oshirishda uslubiy yondashuvlar	106
T.A.Julboyev	
Kredit-modul tizimida anorganik kimyo o'quv fanida mustaqil ta'lidan esse yozish ko'nikmasini rivojlantirish.....	111
C.Ф.Джафарзода	
Некоторые парадоксы несоответствий результатов тестов "остаточных знаний" студента и учащихся в вузе в контексте выбора дидактических целей ценностно-содержательного управления временем.....	115
A.M.Maxmudov	
Yosh futbolchilarning umumiylari va maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirish	124
I.U.Nurmetova	
Dzyudo bilan shug'ullanuvchi qizlarni tezkorlik sifatlarini rivojlantirishda texnik usullardan foydalanish	129
U.R.Radjapov	
Umumiy o'rta ta'limga muktabalaridagi 1- 2-sinf o'quvchilarida jismoniy sifatlarini milliy harakatlari o'yinlar orqali rivojlantirishni didaktik ahamiyati	136
G.K.Yakubova, M.Mashrapova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'sish va rivojlanish qonuniyatları tahlili	141
B.A.Rahimov	
Yosh voleybolchilarni zamonaviy sport mutaxassisligiga yo'naltirishning samaradorligi	148
N.V.Nosirov	
Bo'lajak texnologik ta'limga o'qituvchilarida metodik kompetentsiyalarni rivojlantirishning muammolari va innovatsion usullari	154
F.I.Sharipova	
The development of reading literacy among future nurses	158
L.X.Bektursinova	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik imijni shakllantirishning ayrim masalalari.....	164
K.X.Абдувалиева	
Некоторые аспекты интеграции заданий по химии в процессе обучения химии	169
R.M.Ubaydullayev	
Bo'lajak o'qituvchilarning jismoniy madaniyatini sport pedagogikasi vositasida rivojlantirish texnologiyasi	173
M.M.Yuldashev	
Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarida sog'lom turmush tarzini rivojlantirish texnologiyalari.....	180
M.A.Suyunova	
Maktabgacha ta'limga tashkiloti va oilada maktabgacha yoshgdagi bolalarda ekologik dunyoqarashni shakllantirish usullari.....	185
M.X.Tillavoldiyeva	
Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy taraqqiyot o'rtasidagi aloqadorlik muammolari	190

IQTISODIYOT

O.Sh.Valiev	
The nexus between fdi net inflows and doing business index: analysis from Uzbekistan	194

FALSAFA

A.A.Qambarov	
Qur'on oyatlari hamda hadislarda keltirilgan "shukronalik" tushunchasining ijtimoiy-falsafiy tahlili	199
S.U.Yuldashev	
Jamiyatni ilmiy boshqarishning institutsional va funksional jihatlari	203
G.N.Navro'zova	
Shoh Naqshbandni tafsiflovchi yangi manbaa	207
A.N.Sanaqulov	
Ta'limga tizimida virtual reallikdan foydalanish istiqbollari	211



УО'К: 371.384.3

**BO'LAJAK TEKNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARIDA METODIK
KOMPETENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MUAMMOLARI VA INNOVATSION
USULLARI**

**ПРОБЛЕМЫ И ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ МЕТОДИЧЕСКИХ
КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

**PROBLEMS AND INNOVATIVE METHODS OF DEVELOPING METHODOLOGICAL
COMPETENCES IN FUTURE TECHNOLOGICAL EDUCATION TEACHERS**

Nosirov Nodirbek Valijonovich 

Farg'onan jamoat salomatligi tibbiyot institutte o'qituvchi

Annotasiya

Ushbu maqola oliy ta'limgiz tizimida tahsil olayotgan bo'lajak texnologik ta'limgiz o'qituvchilarini uchun o'qitishning innovatsion va interfaol usullari, zamonaviy texnologiyalarini amalda qo'llash bo'yicha yetarli bilim, ko'nikma, malakalarga ega bo'lishliklari hamda bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentsiyalarini rivojlanishni amalga oshirishda o'qitishning innovatsion usullari va metodlarini universitet amaliyotida qo'llash tajribasi bilan bog'liq jarayonlarni takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari va dars mashg'ulotlarini samarali tashkil etish yo'llarining muammo va dolzarbliги yoritilgan.

Аннотация

В данной статье речь идет об инновационных и интерактивных методах обучения будущих преподавателей технологического образования, обучающихся в системе высшего образования, обладающих достаточными знаниями, навыками и компетенциями в практическом применении современных технологий, а также о проблеме и актуальности педагогических условий совершенствования. Освещены процессы, связанные с опытом использования инновационных методов и методов обучения в вузовской практике в развитии методических компетенций будущих учителей и способы эффективной организации занятий.

Abstract

This article is about innovative and interactive methods of teaching for future teachers of technological education studying in the higher education system, having sufficient knowledge, skills, and competences in the practical application of modern technologies, and The problem and relevance of pedagogical conditions for improving the processes related to the experience of using innovative methods and methods of teaching in university practice in the development of methodical competences of future teachers and the ways of effective organization of classes are highlighted.

Kalit so'zlar: bo'lajak texnologik ta'limgiz o'qituvchilarini, kadr, kasb, tayyorlash, ta'limgiz, jarayon, takomillashtirish, metodik kompetentsiyalar, kasbiy sifatlarini shakllantirish, motivatsion, konstruktiv, tashkilotchilik, boshqaruvchilik, mehnatsevarlik.

Ключевые слова: будущее технологическое образование педагогов, кадры, профессия, обучение, воспитание, процесс, совершенствование, методические компетенции, формирование профессиональных качеств, мотивационный, конструктивный, организованность, управление, трудолюбие.

Key words: future technological education teachers, personnel, profession, training, education, process, improvement, methodical competences, formation of professional qualities, motivational, constructive, organization, management, diligence.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish" ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Bu bo'lajak texnologik ta'limgiz o'qituvchilarining metodik kompetentsiyalarini shakllantirish metod va vositalarini takomillashtirish va amaliyotga joriy etishga sharoit yaratadi [1]. Bo'lajak texnologik ta'limgiz o'qituvchilarning kasbiy bilimlarini rivojlanish masalalarini ularda mustaqil fikrlay olish, o'quvtarbiyaviy jarayonni takomillashtirish, shuningdek ta'limgiz innovatsion texnologiyalarini yaratish va ularni tatbiq eta olishni shakllantirishni talab etmoqda. Berilgan sifatli ta'limgiz kelajakda katta

PEDAGOGIKA

imkoniyatlarni yaratadi va mamlakatning ijtimoiy hamda iqtisodiy farovonligiga muhim hissa qo'shadi. Demak, bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarni tarbiyalash va ta'lim berishga sarflangan mablag'lar kelajakda o'zini to'liq oqlaydi [2]. Bu esa oliy ta'limda faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilarga katta mas'uliyat yuklaydi. 2024-yil 1-fevraldag'i "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi O'RQ-901-sonli O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi. Mazkur Qonunning 9-moddasida "Pedagoglarni tayyorlash. Pedagoglarni tayyorlash oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Pedagoglarni tayyorlash qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda, professional ta'lim tashkilotlari tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin. Pedagogika ta'lim yo'nalishi hamda mutaxassisligi bo'yicha o'quvchi va talabalarni professional va oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish davlat granti va to'lov-shartnomaga asosida amalga oshiriladi. Davlat oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasini shakllantirishda oliy ma'lumotli pedagog kadrlarga ehtiyoj yuqori bo'lgan hududlar uchun davlat grantlari asosidagi maqsadli qabul ko'rsatkichlari ajratilishi mumkin" deyilgan².

ADABIYOTLAR TAHЛИLI

Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchisini mutaxassis sifatida shakllantirish, jamiyatda munosib kasbiy-ijtimoiy va metodik statusga ega bo'lishida oliy ta'lim muassasalarining o'rni kattadir. Oliy ta'lim muassasalarini va ulardagi o'quv-tarbiya jarayonni modernizatsiyalash, pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat-samaradorlini oshirish, bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ularda kasbiy faoliyatga nisbatan akmeologik motivatsiyani shakllantirish pedagog mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirish jarayonidagi muhim vazifalardan sanaladi. Rivojlangan mamlakatlarda mutaxasis tayyorlash tajribasi shuni ko'rsatadiki, oliy ta'limda bo'lajak o'qituvchilarda tanlangan mutaxassislikning o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda intellekt va mantiqiy tafakkurni rivojlantirishdan iborat bo'lib, mazkur vazifani bajarish asosida ta'lim oluvchilarning kasbiy va metodik tayyorgarligi ta'minlanadi [3]. Bunda texnologik tayyorgarlikning asosiy mezonlari sifatida bo'lajak mutaxassisning faoliyatga amaliy tayyorgarligi va ixtisoslik doirasidagi bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirish, kasbiy faoliyat talablariga moslashish darajasi belgilanadi. Shakllantirilgan kasbiy tayyorgarlik kompleks asosda rivojlantirilib, kelajakda ta'lim tizimiga samarali ta'sir o'tkazishi uchun bu tayyorgarlikni uzlusiz, oliy ta'lim uyg'unligida amalga oshirilishini ta'minlash zarur. Ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan samarali ishlar bilan bir qatorda bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchi sifatida kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish uning uslubiy ta'minotini kengaytirish zarurati mavjud [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Oliy ta'lim tizimi - umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzlusiz ta'limning ajralmas muhim bo'g'inidir. Talabalarga ta'lim bilan bir qatorda tarbiya berish, ularni ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga qaratilgan uzlusiz ta'lim turi ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, u holda ularning ilmiy tasavvuri rivojlanishi bilan shug'ullanish har doimgidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi rivojlanayotgan axborot-teknologiya asrida ilm-fan va texnikaning zamonaviy tarmoqlari shaxs va jamiyat munosabatlari, raqamli iqtisodiyot kabi sohalar jadal rivojlanishi munosabati bilan ta'limning ham roli ortdi va yanada muhim ahamiyat kasb etdi. O'zbekistonda bo'lg'usi kadrlar (bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchisi)ni bilim, ko'nikma va malakalari tahlil qilindi va rivojlangan davlatlar bilan solishtirildi [5].

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Shaxsni har tomonlama barkamol inson darajasida tarbiyalash nihoyatda murakkab jarayon bo'lib juda qadim zamonlardan buyon ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti balki jamiyat taraqqiyotini belgilashda ham muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Ushbu tajribalar ta'limning barcha bosqichlarida foydalaniladigan o'qitish tamoyillarini ijodiy qo'llashda, ilmiy bilishga doir g'oyalari, nazariyalar, qonuniyatlarini amaliyotga tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak o'qituvchi, yosh avlod ta'lim-tarbiyasi uchun javobgar bo'lgan shaxsdir. Shunday ekan zamonaviy o'qituvchi ma'haviy-axloqiy madaniyati orqali atrofdagilarga o'rnak bo'lishi bilan bir qatorda yetuk mutaxassis sifatidagi pedagogik mahoratini o'qitish mashg'ulotlarida ularni maktab ta'limiga tayyorlashda namoyon eta olishi zarur. O'zbekistonda ta'lim sifatini oshirish va ilmiy

²"Pedagogning maqomi to'g'risida"gi O'RQ-901-sonli O'zbekiston Respublikasining Qonuni.01.02.2024 yil.

tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida prezident Shavkat Mirziyoyevning bir qator qarorlari imzolandi. Ushbu qaror ta'lim tashkilotlari o'qituvchi-pedagoglarning o'quvchilarda bilim savodxonligini rivojlantirish bo'yicha kasbiy tayyorgarlik tizimini takomillashtirishni muhim vazifa sifatida belgilab berdi. Bo'lajak ovqituvchining yuqori pedagogik mahorati ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlashga zamin bo'libgina qolmasdan, ayni vaqtida uning jamiyatdagi o'rnini ham belgilab beradi va o'quvchilarda unga nisbatan hurmat yuzaga keladi. Kasbiy mahoratni oshirishda amaliy harakatlarni tashkil etish, pedagogik faoliyatda kuzatilayotgan xatolardan xoli bo'lishi, o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi [6]. Kasb, mutaxassislik tushunchalari bilan bir qatorda ixtisoslik tushunchasi ham keng qo'llaniladi. Ixtisoslik kasb turlari uchun zarur bo'lgan tayyorgarlik, ish tajribalari orqali erishilgan zaruriy bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisidir. Kasbga oid tadqiqotlarni yoritishda "kasbiy shakllanish", "kasbiy tayyorgarlik" kategoriyalarini tadqiq etish maqsadga muvofiq. Dastlab kasbiy shakllanish jarayonining pedagogik jihatlarini shaxs rivojlanish jarayonidan farqlab olishga e'tibor qaratilgan. Birinchi holatda, kasbiy shakllanish shaxs rivojlanishining shakllaridan biri, ikkinchidan esa, kasbiy shakllanish shaxsni rivojlantirish (mustaqil ta'lim va o'z-o'zini rivojlantirish jarayonlari) vositasi sifatida qaraladi. Har ikki jixat o'rtaida "Bir butun - qism" ko'rinishdagi tarbiya, ijtimoiylashuvi mavjud. Kasbiy shakllanish uchun nafaqat muayyan kasbga yoki faoliyat sohasiga qiziqish, balki ushbu faoliyat turiga layoqatning mavjud bo'lishi ham talab etiladi. O'rganilgan barcha metodik xarakterga ega bo'lgan ilmiy izlanishlar va tadqiqotlarda kasbiy shakllanish ongli ravishda kasb tanlashda muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlangan. Ayrim pedagogik olimlarlar bo'lajak o'quvchilarning kasbiy shakllanish jarayonini tabaqa lashtirilgan ta'lim tizimining tarkibiy qismi sifatida e'tirof etadi [7].

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, oliy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilar informatika va raqamli texnologiyalar, mustaqil hayotda qo'llash imkoniyati bo'lgan raqamli savodxonlikni va madaniyatni, tanqidiy fikrlash va kreativ axborot kommunikatsion kompetentsiyalarini shakllantirishda, virtual va intellektual bog'liq, robototexnika, arduino, masofadan o'qitish, ta'lim kontentini boshqarish tizimlari, to'ldirilgan borliq, hisoblash matematikasi, ijtimoiy tarmoqlar, internet tijorat, raqamli axborotlar bilan ishslash va ularni qayta ishslash texnologiyalar kabi O'zbekiston iqtisodiyoti rivoji uchun zarur bo'ladijan elementlarning kiritish, bo'lajak o'qituvchilarida ta'lim olishga kuchli motivatsiyani shakllantirish uchun bugungi kunda mustaqil hayotga qadam qo'yish, ta'limning keyingi bosqichiga o'tish uchun zarur kompetentsiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv metodik, didaktik, dasturiy ta'minot, jihoz va uskunalarni shakllantirish lozim. Ushbu tavsiyalar asosida bo'lajak o'qituvchilarga ilm-fan asoslari to'g'risidagi bilimlarni amaliyotga joriy qilish, inson faoliyati, umumiylar raqamli va moddiy madaniyatning turlarini shakllantirishning umumiylarini, o'ziga xos ko'nikmalarini o'zlashtirish asosida amaliy muammolarning innovatsion yechimlarini topish va hayotga tatbiq etishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagagi "2017-2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-sonli Farmoni //O'zbekiston Respublikasi Qonuni hujjatlar to'plami – T., 2017 y. [Ecree of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 7, 2017 "On the Strategy of Actions for the Development of Uzbekistan in 2017-2021" No. PF-4947 //Collection of documents of the Law of the Republic of Uzbekistan - T., 2017.](#)

2.Nosirov N.V. "Bo'lajak texnologik ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda pedagogik-psixologik omillardan foydalanshining ahamiyati" Central asian research journal for inter disciplinary studies (sarjis) ISSN: 2181-2454. Volume 2 | ISSUE 4| 2022. DOI:10.24412/2181-2454-2022-4-81-85 O'zbekiston 4-son 82-85 betlar. 2022 yil. Nosirov N.V. "The importance of using pedagogical and psychological factors in the training of future technological education teachers" Central asian research journal for inter disciplinary studies (sarjis) ISSN: 2181-2454. Volume 2 | ISSUE 4| 2022. DOI:10.24412/2181-2454-2022-4-81-85 Uzbekistan No. 4, pages 82-85. 2022 year.

3.Muslimov N.A. "Bo'lajak kasb-hunar ta'limi o'qituvchilarining kasbiy shakllanishi". Monografiya. - T.: Fan, 2004 y. 126-128 betlar. Muslimov N.A. "Professional formation of future vocational education teachers". Monograph. - T.: Science, 2004. - pp. 126-128.

4.Muslimov N.A. "Kasb ta'limi o'qituvchilari amaliy kompetentligini shakllantirishda ixtisoslik fanlarini o'rni". Pedagogik ta'lim (ilmiy-nazariy va metodik jurnal) 2012 yil, 61-64 beMuslimov N.A. "The role of specialized subjects in the formation of practical competence of vocational education teachers". Pedagogical education (scientific-theoretical and methodical journal) 2012, pp. 61-64.

5. Nosirov, N. (2023). Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish jarayonini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari. *Scientific journal of the Fergana State University*, (1), 207-207. Nosirov,

PEDAGOGIKA

N. (2023). Pedagogical conditions for improving the process of developing methodical competence of future technology teachers. *Scientific journal of the Fergana State University*, (1), 207-207.

6. Valijonovich N. N. (2023). PREPARING FUTURE TECHNOLOGICAL EDUCATION TEACHERS FOR METHODOLOGICAL-INNOVATIVE ACTIVITY. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(10), 300-303. Valijonovich N. N. (2023). PREPARING FUTURE TECHNOLOGICAL EDUCATION TEACHERS FOR METHODOLOGICAL-INNOVATIVE ACTIVITY. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(10), 300-303.

7. Valijonovich Nosirov Nodirbek. "Future Teachers of Technology Methodological Competence Formation Factors". *European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices* 1.2 (2023): 32-37. Valijonovich Nosirov Nodirbek. "Future Teachers of Technology Methodological Competence Formation Factors". *European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices* 1.2 (2023): 32-37.